

ZAMONAVIY KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KATEGORIYA VA KONSEPT TUSHUNCHALARINING TAHLILI



Dotsent Agzamova Dildora Baxodirjonovna,
Dotsent, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti
Toshtemirova Sayyora Tura qizi
Magistrant, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti
toshtemirova.eng@mail.ru, +998977116566

Annotation

Maqolada xotira kategoriying kognitiv tilshunoslikda ya’ni zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilishi va konsept, kategorizatsiya va konspetuallashuvi jarayoni, “Xotira” kategoriyasining konseptualizatsiya holatini ingliz va o‘zbek tillari lug‘atlari asosida o‘rganishlar natijasi keltirilgan

Kalit so‘zlar: konsept, kategoriya, lisoniy faoliyat, kognitiv, tafakkur

Zamonaviy tilshunoslik asosiy terminlaridan biri konseptdir, ya’ni tushuncha. Bu termin kognitiv tilshunoslikning muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada konsept va kategoriya mavzusining kognitiv tadqiqi o‘rganiladi. Kognitiv so‘zi inglizcha “cognize-bilmoq, tushumoq” demakdir. Demak, bu zamonaviy tilshunoslik bo‘lib inson ongi ostida bilish tushunush va anglash jarayonidir.

Dunyon, vogelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to‘g‘ridan to‘g‘ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog‘lab qo‘yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo‘lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma’lum. SHu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (lotincha), ya’ni «aql, tafakkur» hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagи nomenital (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo‘ladi. Vogelikdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok qilish qator mantiqiy – ruhiy harakatlarni o‘z ichiga olgan tarkibli faoliyatdir. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini, albatta, ma’lum bir ob‘ektni boshqa ob‘ektlar qatoridan ajratish harakati tashkil qiladi. Bir ob‘ektni boshqasidan ajratish uchun uning farqlovchi belgilarini topish lozim. Keyingi bosqichda esa, farqlovchi belgilarining chog‘ishtirilishi asosida ob‘ektning hissiy ramzi yuzaga keladi. Navbatdagi bosqichda paydo bo‘lgan ramzning xotirada saqlanayotgan boshqa ramzlar bilan o‘xshash tomonlari izlanadi. Nihoyat, vogelikni bilishning muhim bosqichi – umumlashtirish harakati amalga oshadi (Gorskiy



1985). Sanab o‘tilgan mental harakatlar kognitiv strukturalarni (tafakkur faoliyati qismlarini) tashkil qilib, obyekt haqidagi tushunchaning shakllanishini ta’minlaydi. Tushuncha – mental tuzilma, u aqliy faoliyatning o‘ziga xos shakli (turi) dir. Tushuncha «qandaydir bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va ushbu sinfni unga kiruvchi predmetlarning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasiga nisbatan ajratuvchi mantiqiy faoliyat natijasida hosil bo‘ladi» (Voyshtvillo 1989: 91). Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma’no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug‘ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo‘lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda in’ikos etishi va bu in’ikosning tafakkurda «qayta ishlanish» jarayonini o‘rganayotib, bu jarayonni «tafakkur lisoni»ga o‘xshatadi. CHunki «har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma’lum ko‘rinishdagi strukturaga ega bo‘ladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir» (Fodor 1975: 110). Konsept – mental tuzilma bo‘lib, u turli tarkibdagi va ko‘rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir. Kubryakova (I dr. 1996:90). Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatidan aniq ko‘rinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu qayd unchalik haqiqatga yaqin emas.

Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o‘rinni egallagan bo‘laklari mavhumlikka ega bo‘lishi birgalikda, ular yagona negiz yadroviy(asos) atrofida o‘zaro munosabatga kirishib birikadilar. SHu sababli konsept tarkibining tizimi xarakterga ega ekanligini e’tirof etish ma’quldir. Uning tizimi xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab bilan tartibli bo‘lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog‘liq holda o‘rganishdir. SHunga nisbatan ushbu fanning erishgan asosiy yutuqlaridan biri insonning bilish faoliyati natijasida xotirada hosil bo‘ladigan oldingi tajribaning «iz»lari, ya’ni kategorial tushuncha hamda turli ko‘rinishdagi yuqori darajadagi tarkibli tuzilmalarning mantiqiy va lisoniy tizimlari haqidagi ma’lumotlar majmuasining to‘planishidir. Bu ikki tizim o‘rtasidagi aloqaning uzviyligi kategoriyalashtirish hodisasida yaqqol o‘z aksini topadi.

Ma’lumki, «kategoriya» tushunchasi o‘ta keng ma’noda talqin qilinadi va unda voqelik predmet – hodisalarining eng umumiy va muhim sifatlari, xususiyatlari, aloqalari va munosabatlari o‘z aksini topadi. Predmet-hodisalarini kategoriyalarga ajratish va ularni guruhlar bo‘yicha tasniflash amaliyoti qadimdan mavjud. Kategoriyalashtirish – murakkab aqliy mental va lisoniy jarayondir. Ushbu jarayon ma’lum turdagи harakat bosqichlarini qamrab oladi:

A) stimul (qo‘zg‘atuvchi sabab) tanlovi. Sezgi tizimiga kiruvchi (ko‘rish, eshitish, hid bilish kabi) stimullardan faqatgina diqqatni jalb qiladiganlari tanlanadi;



B) ajratish va tasniflash. Bu harakat tanlangan stimulni xotiradagi bilim bilan qiyoslash, moslashtirish yo‘li bilan bajariladi;

V) nomlash. Hosil bo‘lgan kognitiv kategoriya (konsept) nom oladi (Barsalou 1987: 102).

Kategoriyalarni ajaratishning psixologik asoslarini o‘rganish sohasida 1970 yillarda Elleonora Rosh laboratoriyasida olib borilgan tadqiqotlar alohida e’tiborga molikdir. Ayniqsa, hayvonlar, o‘simliklar, jihozlar kabilarning bosqichli tasnifiy guruhlanishiga oid tadqiqotlarda kategoriyalarga ajratishning psixolingvistik va kognitiv asoslari haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Rosh xonim va uning hamkasblarining farazicha, kategorial tartiblashuvning xususiyatlari hech qanday tarixiy tasodif yoki erkin tanlov natijasi bo‘lmasdan, balki ma’lum turdagи umumiylк psixologik tamoyillar ta’sirida yuzaga keladigan hodisadir.

Xulosa

Kognitiv tilshunoslik so‘nggi yillarda eng tez rivojlanayotgan tilshunoslik sohasi bo‘lib, hali o‘rganilmagan birliklar inson tafakkuri bilan bog‘liq hodisalar olimlar tomonidan aniq bir qarorga kelinmayapti. Har qanday holda ham egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishning asosiy vositasi til tizimidir. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan konseptning lisoniy voqelanishi ham nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir. Inson ongida hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurda obraz hosil bo‘lish yo‘li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xarakterga ega bo‘ladi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, kategoriyalarbir xil birliklardan tarkib topmaydi balki, ular son jihatidan chegaralangan, barcha birliklarning xususiyatlari mos keladi degan xulosa qilmaymiz. Kategoriylar prototip namuna asosida ajratiladilar, ular tarkibida «yaxshi» va «yomon» birliklar bo‘ladi, bu birliklarning barcha xususiyatlarining mos kelishi shart emas, lekin ular «oila o‘xshashligi»ga ega bo‘ladilar degan xulosa kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gorskiy D.P. Obobshenie i poznanie. –M.: Myisl. 1985. -208 s
2. Voyshtillo E.K. Ponyatie kak forma myishleniya. –M.: Izd-vo MGU, 1989. -239
3. Fodor J. The Language of Thought.-Sussex, 1975.
4. Kubryakova E.S. Pamyat i ee rol v issledovanii rechevoy deyatelnosti // Tekst v kommunikatsii. –M.: I-t YAzыkoznaniya, 1991. –s.4-21.
5. Bruner Dj. Psixologiya poznaniya. M.: Progress, 1977. -412s.



6. Barsalou L.W. Context – independent and context-dependent information in concepts. In: Concepts and conceptual factors in categorization. – Cambridge: Cambr. Univ. 1987. –p. 101-140.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax “Sangzor” nashriyoti, 2006.92-bet.

